

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
29-avgustda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 29-avgust

4/1 -son
Samarqand shahri

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalarni Boshlang'ich, maktabgacha va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasida bajarilish holati to'g'risida

SamVPMM Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida mudiri, Ishchi guruh raisi A.Samyayevning "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalarni Boshlang'ich, maktabgacha va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasida bajarilish holati to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida mudiri, Ishchi guruh raisi A.Samyayev so'zga chiqdi: – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-sonli qarori va 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134 sonli Farmoni hamda "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-241-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi yuzasidan Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

Xalq ta'limi xodimlarini kasbiy rivojlantirishning zamonaviy turlari va shakllarini keng joriy etish maqsadida kafedrada xalq ta'limi xodimlarining kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, 2025-yilda 3-ta qisqa muddatli kurslar tashkil etilishi rejalashtirilgan, lekin bitta qisqa muddatli kurs o'tkazilgan (D.Rabbanayeva, D.Nurmanova "Zamonaviy ta'lim: PIRLS VA TIMSS" nomli qisqa muddatli kursi).

An'anaviy, masofaviy va boshqa shakllarni o'z ichiga olgan malaka oshirishning uyg'unlashgan kurslarini tashkil etishda kafedrada boshlang'ich va maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi malaka oshirish kurslari tashkil qilingan. Barcha yo'nalishlar bo'yicha taqdimotlar, tarqatma materiallar, majmualar tayyorlangan va yil davomida yangilanib borilgan.

Pedagogik mahorat markazini yuqori malakali professor-o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlash maqsadida 2024, 2025-yillarda maqsadli doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka qabul qilingan kafedra a'zolari quyidagicha:

Kafedraning barcha o'qituvchilari ilmiy-tadqiqot ishlari mavzularini olgan va shu mavzular bo'yicha ish olib borishmoqda. Kafedra mustaqil tadqiqotchisi

H.Qoraboyevning falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya mavzusi "Boshlang'ich sinflarning o'qish darslaridan uyga vazifalarni tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari" deb nomlanadi. H. Qoraboyevning ishi kafedra muhokamasidan o'tgan.

Kafedra mustaqil tadqiqotchisi J.Shodiyevaning falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya mavzusi "Boshlang'ich sinflarda kichik nasriy asarlarni innovatsion o'qitish metodikasi" deb nomlanadi. J.Shodiyevaning ishi ham kafedra muhokamasidan o'tgan.

Kafedra tadqiqotchisi D.Nurmanova ham ishini yakunlash arafasida. Shu yilning noyabr oyida dissertatsiya ishini kafedra muhokamasiga qo'yishni rejalashtirgan.

Shuningdek, kafedra o'qituvchilaridan H.Ravshanova, Z.Haqberdiyeva, S.Yuldashevalar falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun ilmiy ish mavzulari tasdiqlangan.

Kafedrada so'nggi bir yilda professor-o'qituvchilarning qonunchilikda belgilangan tartibda yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishi va stajirovkalari tashkil etilmagan.

Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda xalqaro konferensiya va seminarlarni tashkil etish, qo'shma xalqaro ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishda 18-aprel kuni kafedra professor o'qituvchilari tomonidan "Sun'iy intellekt va o'qitishning zamonaviy an'analari" mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etilgan.

Kafedra katta o'qituvchisi H.Qoraboyev Samarqand, Navoiy hamda Qashqadaryo viloyatlari pedagogik mahorat markazlari hamkorligida. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yishda Filipped texnologiyasidan foydalanish" mavzusida Respublika miqyosida onlayn vebinar o'tkazdi.

Kafedra dotsenti Raximqulova M.B. "O'qituvchilarning ilg'or tajribasini ommalashtirish tartibi" mavzusida viloyat miqyosida 2025-yil 24-fevral kuni vebinarda ma'ruza qildi.

Raximqulova M.B. "METODIK IMPULS VA TAJRIBA SAFARI" loyihasi doirasida Samarqand shahridagi 14-maktabning 1-sinfiga "Ertaklardan ol saboq" mahorat darsini o'tkazdi.

"METODIK IMPULS VA TAJRIBA SAFARI" loyihasi doirasida kafedra o'qituvchilari viloyat miqyosida maktablarda MTT larida 10 ta seminar va mahorat darslari o'tkazgan.

Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim tashkilotlarini ilmiy darajali kadrlar bilan ta'minlash va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish masalalari quyidagicha:

2025-yili kafedrada 13.75 shtat birligida, shundan 11 ta asosiy shtatda o'qituvchilar faoliyat ko'rsatgan, shundan ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar 1 nafarni tashkil etgan (9%).

Professor-o'qituvchilar tomonidan nufuzli xalqaro bazalarda (SCOPUS, Web of science va Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan bazalar) ro'yxatdan o'tgan ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar soni: - 1 ta Scopus bazasidagi xorijiy jurnallarda (M.Raximqulova), 5 ta Web of science bazasidagi xorijiy jurnalda (M.Raximqulova, D.Rabbanayeva, D.Nurmanova, G.Ergasheva), 11 ta OAK tavsiya etgan jurnallarda, 30 ta xorijiy va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida maqola nashr ettirgan. Shuningdek, kafedrada 2025-yilda 2 ta darslik, 2 ta o'quv qo'llanma, 3 ta uslubiy qo'llanma, 1 ta uslubiy ko'rsatma nashr etilgan.

2025-yilda kafedrada xalqaro yoki milliy ilmiy-tadqiqot grantlari loyihalarida ishtirok etadigan professor-o'qituvchilar mavjud emas.

Kafedra professor-o'qituvchilari masofaviy malaka oshirish kurslarida qatnashib 35 ta sertifikat olgan.

Xalq ta'limi xodimlarining salohiyatini oshirish, xalq ta'limida inson resurslarini rivojlantirishda kafedrada xodimlarning "Lifelong learning" tamoyili asosida uzluksiz malakasini oshirishda "Ustoz-shogird" tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Jumladan, SamDU professori M.Tursunova va kafedra o'qituvchisi J.Shodiyeva, kafedra o'qituvchilaridan M.Raximqulova va D.Nurmanova, G.Ergasheva va J.Shodiyeva bilan "Ustoz-shogird" tizimida ish olib borishgan.

Mahalliy va yetakchi xorijiy tashkilotlar o'rtasida xalqaro hamkorlikni kengaytirishda Qashqadaryo pedagogik mahorat markazi, Sirdaryo pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedralari, O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti bilan kafedra hamkorlik aloqalarini o'rnatgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-

134 sonli Farmonida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi bo'yicha:

Xorijiy mutaxassislar, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlari hamda Pedagogika markazlarining malakali xodimlaridan iborat bo'lgan trenerlar guruhlarini shakllantirishda hududlardagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagoglar uchun zamonaviy metodikalarga asoslangan sayyor o'quv mashg'ulot va seminar-treninglar o'tkazilishi ta'minlangan.

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan viloyatda faoliyat olib borayotgan 6 nafar ilg'or o'qituvchilarining ish tajribasi va faoliyatida qo'llagan zamonaviy metodikalar viloyat miqiyosida ommalashtirilgan.

Kafedrada mutaxassisliklar bo'yicha maktab darsliklarining quyi darajasidagi elementar ma'lumotlarni yetkazib beruvchi 6 ta telegram kanallar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Kafedrada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ–241-sonli

qarorida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

Kafedra professor o'qituvchilari tomonidan belgilangan tumanlardagi «qizil» toifaga kiritilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etib kelingan.

Kafedra professor o'qituvchilari tomonidan buyuk ajdodlarimizning ilmiy va madaniy merosi, ularning ibratli hayot yo'li hamda jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga qo'shgan hissalariga oid targ'ibot ishlarining olib borilgan, ulug' allomalarning tug'ilgan sanalariga hamda davlatimiz ramzlariga bag'ishlangan davra suhbatlari o'tkazilib kelingan. Kafedrada o'quv yili davomida markaz rasmiy veb-saytida 25 marotaba, OAV da 6 marotaba chiqish bo'lgan: va uch marotaba Samarqand viloyat televideniyasining "Milliy libos millat ko'zgusi" va "Sharh va tahlil" ko'rsatuvida, O'zbekiston 24 kanalining "Maktabgacha ta'limda sifat va samaradorlik" maxsus reportajida kafedra o'qituvchilari intervyu berishgan.

Kafedraga tegishli barcha fanlar kesimida ilg'or xorijiy metodlarini (Kembridj metodikasi, Kvest texnologiyasi, Ta'limda sun'iy intellekt...) darslar mazmuniga singdirilib kelingan. Xorijiy metodikaga asoslangan uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar nashr ettirilgan. PISA, STEAM tadqiqotlaridan dars davomida foydalanib kelingan. Lekin kafedrada ayrim professor-o'qituvchilar tomonidan shaxsiy ish rejasida belgilangan nashr ishlari va qisqa muddatli kurslar belgilangan muddatlarda tayyorlanmagan va bajarilmagan. Masalan, Z.Haqberdiyeva tomonidan fevral-mart oylarida tayyorlanishi lozim bo'lgan uslubiy ko'rsatma va nashr ishlari bajarilmagan. X.Ravshanova "Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuv", G.Ergasheva, J.Shodiyeva "Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuv" qisqa muddatli kurslari tashkil etilmagan.

Kafedra faoliyatining umumiy monitoringi:

Kafedra professor-o'qituvchilarining 2025-yilda shaxsiy ish rejalarida belgilangan vazifalari to'liq bajarilgan. Shuningdek kafedraning 2025-yilga mo'ljallangan ish rejasida belgilangan, ammo bajarilmagan kamchiliklari mavjud:

1. 2025-yilda 3-ta qisqa muddatli kurslar tashkil etilishi rejalashtirilgan, lekin 2025-yilda bitta qisqa muddatli kurs o'tkazilgan.
 2. Kafedrada o'rganish davomida professor-o'qituvchilarning qonunchilikda belgilangan tartibda yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishi va stajirovkalarini tashkil etilmagan.
 3. 2025-yilda kafedrada xalqaro yoki milliy ilmiy-tadqiqot grantlari loyihalarida ishtirok etadigan professor-o'qituvchilar mavjud emas.
 4. Kafedrada 2025-yil may oyida rejalashtirilgan Respublika miqyosidagi "MTT tayyorlov guruh bolalarida kreativ ko'nikmalarini shakllantirish" mavzusidagi seminar-trening tashkil etilmagan (M.Nigmatova, H.Ravshanova, Z.Xaqberdiyeva).
 5. Kafedraga xorijiy mutaxassis jalb etilmagan.
- Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

QAROR QILADI:

1. Ishchi guruhning xulosaviy ma'lumoti axborot uchun qabul qilinsin.
2. Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonovaga:
 - kafedrada yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha 1 hafta muddatda chora-tadbirlar ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash;
 - Markaz professor-o'qituvchilari faoliyati samaradorligini o'rganishda xolisona yondashuv hamda jarayonni samarali tashkil etishda shaffoflik ta'minlansin.
3. Boshlang'ich, maktabgacha va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri M.Raximqulovaga:
 - malaka oshirish kursi tinglovchilari va pedagogika markazi professor-o'qituvchilari uchun rejalashtirilgan qisqa muddatli o'quv kurslarini samarali va o'z vaqtida tashkil etilishini yo'lga qo'yish;
 - mahalliy va xorijiy grantlarga ishtirok etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;
 - kafedra professor-o'qituvchilarining belgilangan tartibda yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlarida stajirovka va malaka oshirish kurslarida ishtirok etishini ta'minlash;
 - kafedraga xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
 - kafedrada rejalashtirilgan seminar-treninglarni o'z vaqtida tashkil etish;
 - kafedra ilmiy, kasbiy salohiyatini oshirish;
 - kafedra professor-o'qituvchilarining o'z mutaxassisliklari bo'yicha milliy sertifikatni olishni ta'minlash;
 - xorijiy til bo'yicha sertifikat olish uchun jiddiy tayyorgarlik ko'rish va bunga erishish choralari ko'rish;
 - kafedra rejasida kiritilgan barcha ish turlarini o'z vaqtida tashkil etilishini nazorat qilish;
 - bir hafta muddatda ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilsin.
4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Sobirov

D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
29-avgustda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 29-avgust

4/2-son
Samarqand shahri

Viloyat ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan mahorat darslari tahlili hamda pedagog-xodimlarga ko'rsatilayotgan uzluksiz metodik xizmatni samarali mexanizmlarini tashkil etish to'g'risida

SamVPMU Uzluksiz kasbiy ta'limni tashkil etish bo'limi boshlig'i H.Bekmirzayevning "Viloyat ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan mahorat darslari tahlili hamda pedagog-xodimlarga ko'rsatilayotgan uzluksiz metodik xizmatni samarali mexanizmlarini tashkil etish to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Uzluksiz kasbiy ta'limni tashkil etish bo'limi boshlig'i H.Bekmirzayev so'zga chiqdi: – 2025-yil yanvar-avgust oylarida pedagogik mahorat markazi xodimlarining viloyat ta'lim muassasalarida tashkil etgan mahorat darslari, seminar treninglar, onlayn vebinarlari, reytingi past bo'lgan maktablar bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi, shuningdek, pedagog xodimlarga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarining samarali tashkil etilganligi quyidagilardan iborat.

Viloyat umumta'lim maktablarida o'tkazilgan mahorat darslari:

2024-2025 o'quv yilida umumta'lim maktablari pedagoglari uchun o'qituvchining o'quv rejasidagi mavzuni **"O'qitishning zamonaviy tendensiyalari"**, **"XXI asr ko'nikmalari va 4 K tamoyili asosida darslarni tashkil etish"** mavzulari doirasida viloyatning barcha hududida 186 ta maktabda fanlar kesimida **210 ta mahorat darslari** o'tildi.

Viloyat umumta'lim maktablarida o'tkazilgan seminarlar:

Pedagogik mahorat markazi xodimlari tomonidan viloyatdagi **1264 ta** umumta'lim maktablarining **57900 nafar** pedagoglariga Respublika miqyosida **12 ta**, Viloyat miqyosida **65 ta**, tuman miqyosida **78 ta** jami **154 ta o'quv-amaliy seminarlar** tashkil etildi.

Viloyat umumta'lim maktablarida o'tkazilgan vebinarlar:

Pedagogik mahorat markazi xodimlari tomonidan viloyatdagi **1264 ta** umumta'lim maktablarining pedagoglariga 80 marotaba **vebinarlar** tashkil etildi.

Metodik tur:

Viloyat hokimligining 2024-yil 20-sentabrdagi "Bitiruvchilari 56,7 balldan past ball olgan, davlat OTMlariga kirmagan, ta'lim sifati yuqori bo'lmagan maktablarda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan chora-tadbirlar

rejasi"ga binoan Pasdarg'om tumanidagi 12 ta (95, 108, 33, 38, 26, 30, 46, 90, 64, 59, 75, 78) maktabiga 2024-yil sentabr oyidan 2025-yil aprel oyiga qadar jadval asosida professor-o'qituvchilar va metodistlar tomonidan maktab jamoasiga 312 marotaba yaqindan metodk yordam berildi va quyidagi ishlar amalga oshirildi.

12 ta maktabda "Mahoratli ustoz" telegram guruhi tashkil qilindi. Fanlar kesimida 618 nafar o'qituvchilarning darslari 1236 marotaba darslar tahlil qilindi, aniqlangan bo'shliqlar yuzasidan 763 marotaba mahorat darslari o'tildi. Maktab o'quvchilari bilan 82 marotaba "Siz kim bo'lmoqchisiz?" mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi. "Abituriyent shtabi" faoliyati jonlantirildi fanlar kesimida 17865 ta testlar banki yaratildi, diagnostik testlar olindi. O'qituvchilar va o'quvchilardan aniqlanga bo'shliqlardan kelib chiqqan holda 96 marotaba seminar-treninglar o'tkazildi.

"METODIK IMPULS VA TAJRIBA SAFARI" loyihasi:

Pedadagogik mahorat markazi professor-o'qituvchilar va bo'lim xodimlari tomonidan aprel oyida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "METODIK IMPULS VA TAJRIBA SAFARI" loyihasi asosida "5E va 3C+1E yondashuvi asosida darslarni tashkil qilish" mavzusi doirasida seminar, vebinar, qisqa muddatli kurs va mahorat darslari tashkil qilindi.

Ta'lim sifatini oshirishga pedagoglarni kasbiy rivojlanishiga qaratilgan 23 ta mavzu doirasida 16 ta hududda fanlar kesimida 3200 nafar O'IBDO'Blari va fan o'qituvchilariga seminarlar, 15 ta mavzu doirasida 10 ta vebinarlar tashkil qilindi. "5E va 3C+1E yondashuvi asosida darslarni tashkil qilish" mavzusi doirasida o'qituvchining o'quv rejasidagi mavzu asosida 63 ta mahorat darslari tashkil qilindi.

Oylik doirasida umumta'lim maktablari pedagoglari uchun 18 soatli 4 ta "PISA tadqiqotlarida tabiiy savodxonlik", "Art of living (san'at bilan yashash va ruhiy barqarorlikka erishish)" bo'yicha, "Zamonaviy ta'lim: PIRLS va TIMSS", "Hissiy zo'riqish profilaktikasi" mavzularida maqsadli qisqa muddatli kurslari tashkil qilindi. Ushbu kurslarda 84 nafar o'qituvchilarga kursni yakunlaganlik to'g'risidagi SERTIFIKATlar topshirildi.

Samarqand viloyatida tabiiy va aniq fanlar o'qituvchilar uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbiri asosida o'quvlar tashkil etildi.

DARS TAHLILI

Mahorat markazi metodistlari va mentor o'qituvchilar tomonidan KRS tadbirlarida tabiiy va aniq fanlar yo'nalishida 1342 ta, boshlang'ich ta'limi yo'nalishida 651 ta, ingliz tili fanidan 489 ta fan o'qituvchilarining darsi tahlil qilindi. Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha taklif va tavsiyalar berildi.

METODIK TAVSIYA

Aniq fanlar bo'yicha 4 ta metodik ko'rsatma yaratildi va Samarqand viloyati umumta'lim maktablari mentor va yetakchi o'qituvchilariga yetkazildi

Tabiiy fanlar bo'yicha **4 ta metodik ko'rsatmalar** yaratildi va umumta'lim maktablari mentor va yetakchi o'qituvchilariga yetkazildi.

DARS ISHLANMALARI

Tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha **30 ta**, Aniq fanlar bo'yicha **15 ta** dars ishlanmalari ishlab chiqildi.

16 ta tumanda tashkil qilingan telegramm guruhlar orqali mentor, yetakchi o'qituvchi, fan o'qituvchilariga yetkazildi. Dars ishlanmalar **1263 ta** maktabdan **1156 ta** maktabga yetkazildi.

TESTLAR BANKI

Mentor, yetakchi va fan o'qituvchilarining "KRK" va "KRS" tadbirlari mashg'ulotlarida olgan bilimlarini nazorat qilish maqsadida master-trenerlar tomonidan o'tilgan darslar yuzasidan testlar tuzildi.

Kasbiy rivojlanish kuni va soati tadbirida olingan ma'lumotlar asosida google docs platformasi orqali har bir darsda o'tilgan mavzular bo'yicha **15 ta**, yangi mavzu bo'yicha **5 ta** jami **20 ta** test olindi va tahlili o'tkazildi. Doimiy ravishda mentor o'qituvchilar tomonidan "KRK" mashg'ulotlari yetakchi o'qituvchilar tomonidan "KRS" mashg'ulotlarida fan o'qituvchilardan test olinishi yo'lga qo'yildi.

VIDEOYO'RIQNOMA

Metodistlar bilan umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun KRK va KRS tadbirlarini mazmunini va tartibini tushunishi uchun videoyo'riqnoma ishlab chiqildi.

VIDEOKONTENT

Samarqand tumanidagi **53 ta** maktabning mentor, yetakchi o'qituvchi va fan o'qituvchilari tomonidan **Singapur tajribasini** dars jarayoniga tatbiq etish maqsadida videoroliklar tanlovi e'lon qilindi. **49,47,39,37,24,47,28,52,23 - maktab** o'qituvchilari tomonidan namunali darajada topshiriq bajarildi.

Tabiiy va aniq fan mentorlari tomonidan "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini yanada mazmunli tashkil qilish maqsadida umumta'lim maktab o'qituvchilari uchun dars jarayonlarida Singapur tajribasini amaliyotga qo'llash, o'rganilgan bilimlar va **1-2-modellarni qo'llashni hamda 5E modeli** asosida darslarni tashkil qilishni fanlar va sinflar kesimida **10 ta videokontent** tayyorlandi.

VOLONTYOR MAKTAB

"Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini yanada mazmunli tashkil qilish maqsadida **Pastdarg'om tumanidagi 8-maktab** o'qituvchilari bilan hamkorlikda tumandagi barcha maktab o'qituvchilariga dars jarayonlarida Singapur tajribasini amaliyotga qo'llash, darslarni kuzatish va metodik yordam ko'rsatish maqsad qilib belgilandi.

Viloyat ta'lim muassasalari pedagog-xodimlariga ko'rsatilayotgan uzluksiz metodik xizmatni samarali mexanizmlarini tashkil etish bo'yicha:

Pedagoglarning metodik ishlarini ommalashtirish.uz platformasida baholash

Samarqand viloyatidagi o'qituvchilar tomonidan **3527 ta metodik ish ommalashtirish.uz** platformasiga joylashtirilgan. Bu ko'rsatkich respublika bo'yicha yuqori faollik ko'rsatgan viloyatlar qatoriga kiradi. Joylashtirilgan ishlarning **437 ta rad etilgan**, bu esa taxminan **12 foiz** ulushni tashkil qiladi. Rad etilish sabablari sifatida metodik talabga javob bermaslik, mavzuning dolzarbligi yetarli emasligi yoki rasmiylashtirishdagi xatoliklar ko'rsatilgan.

Platformaga joylashtirilgan ishlardan **1622 tasi maktab miqyosida**, **1136 tasi tuman miqyosida**, **293 tasi viloyat miqyosida**, **42 tasi esa respublika miqyosida** tavsiya etilgan. Ushbu jarayonning yakuniy bosqichida esa **22 nafar o'qituvchining ishlari Respublika darajasida rasman ommalashtirilgan**.

Metodik marafon.

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi hamda Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi hamkorligida joriy yilning **29-30-may kunlari o'quv-tarbiya** jarayoniga zamonaviy talablar asosida innovatsion pedagogik kasbiy rivojlanishga ko'maklashish, metodik bo'shliqlar va ehtiyojlarni aniqlash, ularni bartaraf etishga ko'maklashish, shuningdek, o'qituvchilarning kayfiyatini oshirishga qaratilgan **"Metodik marafon"** tashkil etildi.

Metodik marafonga maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, tuman (shahar) bo'limlari tomonidan viloyatning 16 ta hududidagi tayanch maktablarida (**2916 nafar**) va pedagogik mahorat markazida (**360 nafar**) umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan **3276 nafar o'qituvchi** jalb etildi. Ular orasida **o'qish savodxonligi, tabiiy-ilmiy savodxonlik, matematik savodxonlik va boshlang'ich ta'lim** yo'nalishlarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar faol ishtirok etdilar.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

QAROR QILADI:

1. Uzlüksiz kasbiy ta'limni tashkil etish bo'limi boshlig'i H.Bekmirzayevning "Viloyat ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan mahorat darslari tahlili hamda pedagog-xodimlarga ko'rsatilayotgan uzluksiz metodik xizmatni samarali mexanizmlarini tashkil etish to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'tkazilayotgan tadbirlarda berilayotgan materiallarni mazmuni va dolzarbligini aniqlash uchun ekspertizadan o'tkazish jarayoni to'g'ri yo'lga qo'yilsin.

3. Uzlüksiz kasbiy ta'limni tashkil etish bo'limi boshlig'i H.Bekmirzayevga:
-viloyat ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan seminar, mahorat darslarini sifatli va yuqori saviyada tashkil etilishini nazorat qilish;

-pedagoglarning "Uzlüksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasida faoliyatini nazorat qilish;

- platformada onlayn darslarda ishtirok etayotgan foydalanuvchilar tomonidan yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda amaliy yordam ko'rsatish;

- malaka oshirish kurslari o'quv modullari kontentini shakllantirishga bo'lgan talablarni va o'quv modullarini markazlashtirilgan holda ishlab chiqish va elektron platformaga joylashtirilishini tashkil qilish;

-uzluksiz kasbiy rivojlantirish tayanch kurslari o'quv modullarining kontentlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;

- kurs kontent materiallarini talablar asosida tayyorlanishini doimiy nazorat qilib borish hamda kontent materiallarini elektron platformaga joylashtirilishini tashkil qilish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish SamVPMMning pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

A.Sobirov

Kengash kotibi

D.Yunusova



**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
29-avgustda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 29-avgust

4/3-son
Samarqand shahri

SamVPMMda 2025-yilning ikkinchi yarimida rejalashtirilgan vazifalar, ishchi o'quv reja va dasturlarning bajarilishi, o'quv-metodik majmualarni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida

SamVPMM Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonovanning "SamVPMMda 2025-yilning ikkinchi yarimida rejalashtirilgan vazifalar, ishchi o'quv reja va dasturlarning bajarilishi, o'quv-metodik majmualarni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonova so'zga chiqdi: – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi 2025-yilning ikkinchi yarimida rejalashtirilgan vazifalar, ishchi o'quv reja va dasturlarning bajarilishi, o'quv-metodik majmualarni takomillashtirish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

SamVPMMda jami 112 nafar professor-o'qituvchi va xodimlar faoliyat olib boradi. Shundan 41 nafari professor-o'qituvchilar (1 nafar professor, 11 nafar dotsent, 18 nafar katta o'qituvchi va o'qituvchilar), 40 nafari bo'lim xodimlari, 31 nafar xo'jalik xodimlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2024-yil 20-dekabrda 867-son qaror asosida 32 ta yo'nalishda 245 ta guruh o'qitildi. Reja bo'yicha 5586 nafar tinglovchi o'qitilishi kerak edi, shundan amalda 5658 nafar tinglovchi o'qitildi. 122 ta tinglovchi safdan chiqarildi. 50 nafar tinglovchi yakuniy attestatsiyadan o'ta olmadi.

2025-yil sentabr-dekabr oylarida 166 ta rivojlantiruvchi va yuksaltiruvchi, 4751 nafar rivojlantiruvchi va yuksaltiruvchi guruh tinglovchilarining malakasini oshirish rejalashtirilgan.

2025-yil yanvar-iyun oylarida 32 ta yo'nalishda 245 ta guruh o'qitildi. Guruh jurnallari har oyning oxirida guruh mas'ullari tomonidan akademik faoliyatni muvofiqlashtirish bo'limiga topshiriladi. Guruh jurnallarining holati ta'lim sifati va talablariga javob beradi.

SO'ZGA CHIQDI: SamVPMM direktori A.Sobirov – Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonovanning "SamVPMMda 2025-yilning ikkinchi yarimida rejalashtirilgan vazifalar, ishchi o'quv reja va dasturlarning bajarilishi, o'quv-metodik majmualarni takomillashtirish bo'yicha amalga

oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi bergan ma'lumotlari to'liq bo'lmaganligi uchun keyingi Kengash yig'ilishida ma'lumotlar to'liq holda shakllantirilib taqdim etilsin.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

QAROR QILADI:

1. Akademik Ta'oliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y. Ne'matjonovning "SamVPMMda 2025-yilning ikkinchi yarimida rejalashtirilgan vazifalar, ishchi o'quv reja va dasturlarning bajarilishi, o'quv-metodik majmualarni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi axboroti to'liq bo'lmaganligi uchun keyingi Kengash yig'ilishida ma'lumotlar to'liq holda shakllantirilib taqdim etilsin.

2. Ushbu qaror ijrosi nazoratini o'z zimmasiga qoldiraman.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A. Sobirov

D. Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
29-avgustda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 29-avgust

4/4.1-son
Samarqand shahri

SamVPMM Kengashi a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida.

SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusovning "SamVPMM Kengashi a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusova so'zga chiqdi: – Kengash a'zolari tarkibini quyidagicha:

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashi a'zolari
RO'YXATI**

№	Familiyasi, ismi sharifi	Ilmiy darajasi, unvoni, lavozimi
1	Sobirov Anvar Kuvandikovich	Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, Kengash raisi
2	Ne'matjonova Yulduz O'tkirovna	Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari (a'zo)
3	Murodov Sarvar Saydullo o'g'li	Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari (a'zo)
4	Raximqulova Maxbuba Baxranovna	Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasini mudiri (a'zo)
5	Tagayev Ganisher Xasanovich	Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri (a'zo)
6	Samyayev Anvar Qadirovich	Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasini mudiri (a'zo)
7	Davronov Pirnazar Ziyatovich	Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasini professori (a'zo)
8	Usmonov Bahodir Islomovich	Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasini dotsenti (a'zo)
9	Haydarov Komil Donoboyevich	Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasini v.b.professori (a'zo)
10	Kandaxarov Mirjalol Abdimurot o'g'li	Ijro intizomi bo'yicha bosh mutaxassis va Markaz kasaba uyushmasi kengashi raisi (a'zo)
11	Soyipova Dilafruz Raximovna	Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri (a'zo)
12	Okilova Kamola Sadulloyevna	Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasini dotsenti (a'zo)
13	Pardayev Zafar Shukurovich	Ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i (a'zo)
14	Fayziyeva Mutabar Mardonovna	Fanlarni rivojlantirish bo'limi boshlig'i (a'zo)
15	Bekmirzayev Hasan Safarovich	Uzluksiz kasbiy ta'limni tashkil etish bo'limi boshlig'i (a'zo)

16	Xujakulov Sherzod Amankulovich	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo'limi boshlig'i (a'zo)
17	Ashurova Barno Nematovna	Inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis (a'zo)
18	Norov Bobir Baxriddinovich	Moliya-iqtisod va buxgalteriya bo'limi boshlig'i (a'zo)
19	Abdullayev Abdullo Abduxakim o'g'li	Akademik faoliyatni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i (a'zo)
20	Abduraxmonov Jasur Bekpulatovich	Maktabgacha ta'limni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i (a'zo)
21	Yunusova Durдона Axtamovna	Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti (kengash kotibi)

SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusovanning "SamVPMM Kengashi a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi axboroti tinglandi.

Yuqoridagi jadvalda berilgan ro'yxatga asosan, kengash 21 nafar a'zo bilan ishni davom ettiradi.

SamVPMM Kengashi raisi A.Sobirov – ushbu masala bo'yicha savollar, fikrlar bo'lsa marhamat.

Ushbu masala atroflicha muhokama etilib SamVPMM Kengashi

QAROR QILADI:

1. SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusovanning "SamVPMM Kengashi a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. SamVPMM Kengashi 21 nafar a'zo bilan ishni davom ettirsin.

Kengash raisi

A.Sobirov

Kengash kotibi

D.Yunusova



**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
29-avgustda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 29-avgust

4/4.2-son
Samarqand shahri

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda "Ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi 1030-sonli qaroriga asosan oylik ish haqiga qo'shimcha haq to'lash bo'yicha talabgorlar ishlari muhokamasi to'g'risida.

SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusovning "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda "Ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi 1030-sonli qaroriga asosan oylik ish haqiga qo'shimcha haq to'lash bo'yicha talabgorlar ishlari muhokamasi to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusova so'zga chiqdi: –

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida qo'shimcha haq kadrlar tayyorlash, shu jumladan, yuqori malakali va ilmiy faoliyat sifatini oshirish va ilmiy faoliyat natijalarini iqtisodiyotning real sektoriga tijoratlashtirish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining mamlakatda va xorijda nufuzini oshirishga qo'shgan hissalariga qarab belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda 1030-son Qarori bilan tasdiqlangan "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan quyida SamVPMM direktori, dotsent Sobirov Anvar Kuvandikovich hamda akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari, dotsent Ne'matjonova Yulduz O'tkirovnalarga tashkilotlar tomonidan berilgan ko'chirma hamda SamVPMMda tashkil etilgan ishchi guruh xulosasi tavsiya etilgan. Nizomga asosan markazda tashkil etilgan ishchi guruh xulosasiga ko'ra tavsiya etilgan:

Ilova

№	Talabgor F.I.Sh	Darajasi	Belgilangan foiz
1	Sobirov Anvar Kuvandikovich	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),	30%
2	Ne'matjonova Yulduz O'tkirovna	Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),	30%

SamVPMM Kengashi raisi A.Sobirov – ushbu masala bo'yicha savollar bo'lsa, marhamat.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusovning "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda "Ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi 1030-sonli qaroriga asosan oylik ish

haqiga qo'shimcha ustamalar to'lash bo'yicha talabgorlar ishlari muhokamasi to'g'risida"gi axboroti ijro uchun qabul qilinsin.

2. "Vazirlar Mahkamasining ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi 2019-yil 24-dekabr 1030-sonli qarorining ijrosini amalga oshirish tashkilotlar tomonidan berilgan ko'chirma hamda ishchi guruh tavsiyasi inobatga olinsin.

4. SamVPMM direktori, dotsent Sobirov Anvar Kuvandikovich hamda akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari, dotsent Ne'matjonova Yulduz O'tkirovnalarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda 1030-son Qarori bilan tasdiqlangan "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi qaroriga asosan qo'shimcha haq to'lansin.

5. Markaz direktori, dotsent Sobirov Anvar Kuvandikovich hamda akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari, dotsent Ne'matjonova Yulduz O'tkirovnalarga qo'shimcha haq to'lash 1030-son Qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida amalga oshirish inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis B.Ashurova va bosh hisobchi B.Norovga topshirilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash SamVPMMning pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Sobirov

D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
29-avgustda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 29-avgust

4/4.3-son
Samarqand shahri

SamVPMM budjetdan tashqari maxsus hisob raqamiga 2025-yilda mablag' topish va yotoqxonaga uchun to'lovlar tartibini belgilash to'g'risida.

SamVPMM Moliya-iqtisod va buxgalteriya bo'limi boshlig'i B.Norovning "SamVPMM budjetdan tashqari maxsus hisob raqamiga 2025-yilda mablag' topish va yotoqxonaga uchun to'lovlar tartibini belgilash to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Moliya-iqtisod va buxgalteriya bo'limi boshlig'i B.Norov so'zga chiqdi: – SamVPMM budjetdan tashqari maxsus hisob raqamiga mablag' tushirish uchun yotoqxonaga to'lovlarini qayta ko'rib chiqish, kommunal to'lovlar: elektr energiya, ichimlik va oqova suv hamda tabiiy gaz tarif narxlari aprel oyidan boshlab oshganligini hisobga olib, 02-sentabrdan boshlab yotoqxonada oylik yashash uchun to'lovlarni 250 000 (ikki yuz ellik ming) so'mdan qilib belgilash lozim. Bazaviy hisoblash miqdori yoki kommunal to'lovlar tarifi o'zgarganda to'lovlar miqdori ham o'zgaradi.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Moliya-iqtisod va buxgalteriya bo'limi boshlig'i B.Norovning "SamVPMM budjetdan tashqari maxsus hisob raqamiga 2025-yilda mablag' topish va yotoqxonaga uchun to'lovlar tartibini belgilash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Moliya-iqtisod va buxgalteriya bo'limi boshlig'i B.Norovga:

- SamVPMM maxsus hisob raqamiga mablag' topish va yotoqxonadan mablag' tushirish uchun kerakli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

-haftalik yotoqxonaga to'lovlarini 250 000 (ikki yuz ellik ming) so'm qilib belgilansin.

3. Mazkur qaror ijrosi Moliya-iqtisod va buxgalteriya bo'limi boshlig'i B.Norov zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasiga qoldiraman.

Kengash raisi

A.Sobirov

Kengash kotibi

D.Yunusova



**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
29-avgustda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 29-avgust

4/4.4-son
Samarqand shahri

Hududiy markaz xodimlarini moddiy rag'batlantirish to'g'risida

SamVPMM direktori A.Sobirovning "Hududiy markaz xodimlarini moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan SamVPMM direktori A.Sobirov so'zga chiqdi: – O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini hamda tizimga oid huquqiy- me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish, hududiy markazning o'quv-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy hamda xo'jalik sohasida o'zining fidoyiligi bilan munosib hissasini qo'shib kelayotgan pedagoglar va ishchi xodimlarni "1-sentabr – Mustaqillik kuni" bayrami munosabati bilan moddiy rag'batlantirish mablag'lari hisobidan rag'batlantirishga tavsiya etiladi.

Moddiy rag'batlantiriladigan xodimlar ro'yxati

№	F.I.Sh	Lavozimi	Miqdori
1	Murodov Sarvar Saydulla o'g'li	Direktor o'rinbosari	1 130 000
2	Ne'matjonova Yulduz O'tkirjon qizi Direktor o'rinbosari	Direktor o'rinbosari	1 130 000 1 130 000
3	Abdixakimova Dilafruz Safarboevna	Kotiba-ish yurituvchi	570 000
4	Mo'minova Zarnigor Kurbon qizi	Kotiba-ish yurituvchi	570 000
5	Doniyorov Ibrohim Eshquvvatovich	Yuriskonsult	1 130 000
6	Kuziyeva Shaxlo Ergashevna	Matbuot koti	1 130 000
7	Pardaev Zafar Shukurovich	Bo'lim boshlig'i	1 130 000
8	Fayziyeva Mutabar Mardonovna	Bo'lim boshlig'i	1 130 000
9	Bekmirzayev Xasan Safarovich	Bo'lim boshlig'i	1 130 000
10	Abdullayev Abdullo Abduhakim o'g'li	Bo'lim boshlig'i	1 130 000
11	Norov Bobir Baxriddinovich	Bosh boshlig'i	1 130 000
12	Ashurova Barno Nematovna	Bosh mutaxassis	1 130 000
13	Kandaxarov Mirjalol Abdimurot o'g'li	Bosh mutaxassis	1 130 000

14	Narkuvatova Zuxra Gafurovna	Bosh mutaxassis	1 130 000
15	Abdinazarova Xumora Abdilaziz qizi	Bosh mutaxassis	1 130 000
16	Xujakulov Sherzod Amankulovich	Yetakchi mutaxassis	1 130 000
17	Ikramova Munisa Sheralievna	Bosh mutaxassis	1 130 000
18	Shakarov Axror Amonkulovich	Yetakchi mutaxassis	1 130 000
19	Xatamova Fazilat Adilovna	Yetakchi mutaxassis	1 130 000
20	Jabbarova Munira Saparboy qizi	Yetakchi mutaxassis	1 130 000
21	Yusupova Sev'ara Baxriddinovna	Bosh mutaxassis	1 130 000
22	Eshniyazov Said musayevich	Bosh mutaxassis	1 130 000
23	Mardiyev Umid Xalil o'g'li	Yetakchi mutaxassis	1 130 000
24	Xamedova Zebo Xoshimovna	G'aznachi	1 130 000
25	Azamatov Suxrob Baxrillo o'g'li	Metodist	1 130 000
26	Niyozov Vali Alimardonovich	Metodist	1 130 000
27	Giyasova Shirin Kobilovna	Metodist	1 130 000
28	Saparova Dilshoda Adashevna	Metodist	1 130 000
29	Norkulov Ulug'bek Mamadaliyevich	Metodist	1 130 000
30	Shanazarova Nigora Abirkulovna	Metodist	1 130 000
31	Norboyeva Gulhayyo Nabijonovna	Metodist	1 130 000
32	Buranova Ra'no Quدراتovna	Metodist	1 130 000
33	Kudratov Xurshid Abdurazzakovich	Metodist	1 130 000
34	Zaynizoda Taxmina Metodist	Metodist	1 130 000
35	Narziyeva Mastura Nasriddinovna	Metodist	1 130 000
36	Maxmayusupova Aziza Pardayevna	Metodist	1 130 000
37	Pulatova Zulfiya Sheraliyevna	Metodist	1 130 000
38	Ismoilov Anvarjon Tolib o'g'li	Metodist	1 130 000
39	Ruziyev Farxod Toshtemirovich	Metodist	1 130 000
40	Mamatova Sitora Egamberdiyevna	Metodist	1 130 000
41	Suvankulov Umid Ilxomjon o'g'li	Metodist	1 130 000

42	Rajabova Xurriyat O'ktamovna	Metodist	1 130 000
43	Yunusova Durdona Axtamovna	Dotsent	1 130 000
44	Yakubjanova Muxayyo Qodirjanovna	Katta o'qituvchi	1 130 000
45	Raimkulova Irina Alikulovna	Katta o'qituvchi	1 130 000
46	Ruziyeva Nigora Zohidjonovna	Katta o'qituvchi	1 130 000
47	Normamatova Kamola Gulmamat qizi	O'qituvchi	1 130 000
48	Tagaev Ganisher Xasanovich	Kafedra mudiri	1 130 000
49	Xaydarov Komil Donaboyevich	Professor	1 130 000
50	Rasulova Maftuna Nasimboy qizi	Katta o'qituvchi	1 130 000
51	Oripov Jamshid Yaxshiboevich	Katta o'qituvchi	1 130 000
52	Xudoyqulova Nodira Murodovna	O'qituvchi	1 130 000
53	Kushanova Dilfuza Ubaydullayevna	O'qituvchi	1 130 000
54	Ne'matov Bekzod Abdunazarovich	O'qituvchi	1 130 000
55	Samyaev Anvar Kadirovich	Kafedra mudiri	1 130 000
56	Usmanov Bahodir Islamovich	Dotsent	1 130 000
57	Davronov Pirnazar Ziyatovich	Dotsent	1 130 000
58	Abduev Sheroz Bobirovich	Katta o'qituvchi	1 130 000
59	Yunusova Navbaxor Axmadjonovna	Katta o'qituvchi	1 130 000
60	Kadirov Tulqin Baxridinovich	v.b Dotsent	1 130 000
61	Turapov Voxid Mamadiyorovich	Katta o'qituvchi	1 130 000
62	Xaydarov Xurshid Ismatovich	Katta o'qituvchi	1 130 000
63	Sanayeva Raxima Amirovna	Katta o'qituvchi	1 130 000
64	Sherxalov Kuchkar Xusanovich	O'qituvchi	1 130 000
65	Okilova Kamola Sadulloevna	Dotsent	1 130 000
66	Xurramov Anvar Vafakulovich	Katta o'qituvchi	1 130 000
67	Mansurov Farrux Najmiddinovich	Katta o'qituvchi	1 130 000
68	Mamarasulova Shaxnoza Shuhrat qizi	O'qituvchi	1 130 000
69	Shodiyorova Umida Shodiyor qizi	O'qituvchi	1 130 000

70	Eshbekova Gulbaxor Xazratkulovna	O'qituvchi	1 130 000
71	Usmonova Firuza Saidaxmedovna	O'qituvchi	1 130 000
72	Aliyev Shexroz Yodgor o'g'li	O'qituvchi	1 130 000
73	Raximqulova Maxbuba Baxronovna	Kafedra mudiri	1 130 000
74	Rabbonayeva Dildora Tolipovna	Katta o'qituvchi	1 130 000
75	Ergasheva Gulshoda Amirovna	Katta o'qituvchi	1 130 000
76	Qoraboev Husniddin Kamolovich	Katta o'qituvchi	1 130 000
77	Ravshanova Xafiza Komilovna	O'qituvchi	1 130 000
78	Nigmatova Mavjuda Zuvayduloevna	Katta o'qituvchi	1 130 000
79	Shodieva Jamila Xolboevna	Katta o'qituvchi	1 130 000
80	Nurmonova Dilfuza Jamilovna	Katta o'qituvchi	1 130 000
81	Xaqberdiyeva Zamira Rajabboyevna	O'qituvchi	1 130 000
82	Kuvandikova Moxira Abdukarimovna	O'qituvchi	1 130 000
83	Yuldasheva Sevara Maqsudjonovna	O'qituvchi	1 130 000
84	Abduqahhorov Sirojiddin Arslonovich	Bo'lim boshlig'i	1 130 000
85	Xusanov G'olib Elmurodovich	Komendant	1 130 000
86	G'ulomov Ilhom Musurmonovich	Komendant	570 000
87	Nurmaxmadoy Zafar Xushvaqtovich	Omborchi	570 000
88	Mustafayev Axmat Aliyevich	Duradgor	570 000
89	Salimov Alisher Abdujalilovich	Elektrik	570 000
90	Seytveliyev Eldar Lemarovich	Santexnik	570 000
91	Kurbanov Shadiyar Toshpulatovich	Santexnik	570 000
92	Maxmaziyyeva Klara Sadikovna	Farrosh	570 000
93	Yuldashova Moxinur Xolmurodovna	Yotoqxona mudiri	570 000
94	Raximov Komiljon Yeshmonovich	Qorovul	570 000
95	Raxmonova Navbaxor Abduvahabovna	Qorovul	570 000
96	Atoev Ziyoddillo Yusupovich	Qorovul	570 000
97	Xarinov Ibragim Nizomovich	Qorovul	570 000

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
29-avgustda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 29-avgust

4/4.5-son
Samarqand shahri

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Ekspert komissiyasi
(nashr ishlari bo'yicha) tarkibini o'zgartish to'g'risida.**

SamVPMM direktori A.Sobirovning "Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Ekspert komissiyasi (nashr ishlari bo'yicha) tarkibini o'zgartish to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan SamVPMM direktori A.Sobirov so'zga chiqdi: — Hurmatli Kengash a'zolari! Nashr ishlarini samarali va sifatli tayyorlanishini, tayyorlangan nashr ishlarining mavzulari, imloviy, uslubiy, texnik xatolarini ko'zdan kechirish maqsadida markazda Ekspert komissiyasi (nashr ishlari bo'yicha) tashkil etilgan edi. Mazkur ekspert komissiyasi (nashr ishlari bo'yicha) a'zolarining faoliyati quyidagi tarkibda o'zgartiriladi:

ekspert guruhi boshlig'i dots. M.Raximqulova

a'zo dots. G.Tagayev

a'zo v/b dots. A.Samyayev

Yuqoridagilar muhokama etildi va markaz SamVPMM Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. SamVPMM direktori A.Sobirovning "Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Ekspert komissiyasi (nashr ishlari bo'yicha) tarkibini o'zgartish to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ekspert guruhi boshlig'i M.Raximqulova, a'zolari etib dots. G.Tagayev hamda v/b dots. A.Samyayevlar tasdiqlansin.

SamVPMM Kengash raisi

A.Sobirov

SamVPMM Kengash kotibi

D.Yunusova



**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
29-avgustda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 29-avgust

4/4.6-son
Samarqand shahri

SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida

SamVPMM Kengash kotibi D.Yunusovning "SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan SamVPMM Kengash kotibi D.Yunusova so'zga chiqdi: – Bugungi yig'ilishda ko'riladigan masalalardan har xil masalalarning 4.6-bandi "SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida" bo'lib, bu bo'yicha Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi G.Eshbekova, Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti G.Fayzullayeva, Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti G.Fayzullayeva, Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari doktori, professor D.Ximmataliyev hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi G.Iskandarovalar tomonidan tayyorlangan darslik SamVPMM Kengashi tasdig'idan o'tkazish uchun qabul qilindi.

Mualliflar tomonidan tayyorlangan nashr ishlariga ijobiy ichki va tashqi taqrizlar berilgan, tegishli kafedra yig'ilishida muhokama qilinib, kafedra bayonnomasidan ko'chirma taqdim qilingan.

Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası				
1	G.Fayzullayeva G.Eshbekova D.Ximmataliyev G.Iskandarova	Pedagogik menejment	T.: A.Ibragimov – Samarqand xalqaro texnologiya universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc). I.: K.Oqilova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası dotsenti.	212 bet

Qo'lingizdagi qaror loyihasi bo'yicha fikr va savollar bo'lsa marhamat.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusovning "SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi G.Eshbekova, Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti G.Fayzullayeva, Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari doktori, professor D.Ximmataliyev hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi G.Iskandarovalar tomonidan tayyorlangan quyidagi nashr ishini "Darslik" sifatida chop etilishiga ruxsat etilsin:

Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası

1	G.Fayzullayeva G.Eshbekova D.Ximmataliyev G.Iskandarova	Pedagogik menejment	T.: A.Ibragimov – Samarqand xalqaro texnologiya universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc). I.: K.Oqilova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası dotsenti.	212 bet
---	--	------------------------	---	---------

3. Nashr etilgan darslik nusxasi (5 ta) SamVPMMning ARMga taqdim etilsin.

4. Nashr etilgan ishlarni SamVPMM saytiga joylashtirish axborot resurs markazi bosh mutaxassisi Z.Narkuvvatova zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ijrosi nazorati akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonova zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Sobirov

D.Yunusova